



## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI ILMIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHNING MAVJUD HOLATI

**Inoyatova Zulfiya Xamdamovna**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasida dotsenti*

**O‘rinboyeva Umida Hamro qizi**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi I-bosqich magistranti  
umidaorinboyeva929@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ilmiy faoliyatga yo‘naltirish jarayonining mazmuni, ahamiyati va metodik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy faoliyatning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, o‘quv jaryonlarida ilmiy faoliyat elementlarining yetarli o‘rin olmasligi, ilmiy muammo qo‘yish va tahlil ko‘nikmalarining sustligi, nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashmaganligi bilan izohlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *ilmiy faoliyat, metodik asos, huquqiy hujjat, huquqiy asos, tarkibiy qism, ko‘nikma sustligi, nazariy bilim, amaliy faoliyat.*

**Аннотация.** *В данной статье анализируются содержание, значение и методические основы процесса направления будущих учителей начальных классов к научной деятельности. Также содержание научной деятельности объясняется её структурными компонентами, недостаточной представленностью элементов научной деятельности в учебных процессах, слабостью навыков постановки и анализа научной проблемы, а также несогласованностью теоретических знаний с практической деятельностью.*

**Ключевые слова:** *научная деятельность, методическая основа, правовой документ, правовая основа, составная часть, недостаточность навыков, теоретические знания, практическая деятельность.*

**Abstract:** *This article analyzes the content, significance, and methodological foundations of the process of guiding future primary school teachers toward scientific activity. The content of scientific activity is explained by its structural components, the insufficient inclusion of scientific activity elements in educational processes, the weakness of skills in formulating and analyzing scientific problems, and the lack of alignment between theoretical knowledge and practical activity.*

**Keywords:** *scientific activity, methodological basis, legal document, legal basis, structural component, lack of skills, theoretical knowledge, practical activity.*

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ilmiy faoliyatga yo‘naltirish-ularning kasbiy rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bugungi ta’lim



jarayoni o'qituvchidan nafaqat metodik bilim, balki ilmiy izlanish olib borish ko'nikmasini ham talab qiladi. "Pedagogik atamalar lug'ati"da ilmiy va ijodiy faoliyat haqida shaxsning mustaqil ishiga, mustaqil rivojlanishiga, uning faol va ijodiy ibtidosiga yo'naltirilgan faoliyat deb ta'rif berilgan [1]. I.P.Pavlov esa ilmiy faoliyat-tizimli kuzatuv, tajriba va tahlil orqali yangi bilim olish jarayonidir. U inson va jamiyat rivojida muhim rol o'ynaydi degan[2].

Bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy faoliyatga yo'naltirilishi, ilmiy izlanishlar olib borish va pedagogik jarayonni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizmi uchun eng dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Ilmiy faoliyat bu - ob'ektlar hodisaning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliyot tadqiqotlardan biridir. Ilmiy faoliyatning shakllanishi talabalarda ilmiy muammo qo'yish, tahlil qilish, ilmiy metodlardan foydalanish, tajriba o'tkazish, natijalar chiqazish kabi kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 PQ-son qarorida ilmiy faoliyat haqida shunday deyilgan: Hozirgi kunda pedagogika sohasida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni malakali professor o'qituvchilarga biriktirish va ilmiy faoliyatga yo'naltirish tizmi takomillashtirilmogda. Shu bilan birga talabalarning professor o'qituvchilarning xalqaro bazalardagi ilmiy nashrlar ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha o'quv-amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish belgilangan [3]. Ushbu qaror asosida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni malakali professor o'qituvchilarga biriktirish hamda ilmiy faoliyatga yo'naltirish tizmini takomillashtirish vazifasining belgilanganligi mamlakatda bilim salohiyatni oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanin ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalq ta'limi vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda pedagogik amaliyot davrida talabalarga dars berishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlasin deb ta'kidlaydi [4].

Qarorda berilgan vazifalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik amaliyotlar bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiga kirib borishi uchun eng samarali bosqichi hisoblanib, talaba aynan shu jarayonlarda nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantiradi. Sharoitlarning yaratilishi talabalar dars berish jarayoniga to'liq kirishishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi bilan birga o'quvchilar bilan bevosita ishlash orqali kasbiy kompetensiyaalrni shakllantirishga yordam beradi.

Yuqorida bayon etilganlarni tahlil qilar ekanmiz, bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish ularning kasbiy rivojlanishi va ta'lim jarayonlarida samarali ishlashi uchun zarur vositadir. Ilmiy izlanish olib borish malakasiga ega bo'lgan bo'lajak pedagoglar nafaqat tayyor ma'lumotlarni yetkazadi, balki ularda mustaqil fikrlash rivojlanishi, tahlil qilish va ijodiy

yondashish kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantira oladi. Natijada ilmiy faoliyatga yo‘naltirilgan talaba kelgusida zamonaviy va ijodkor o‘qituvchi bo‘lib rivojlanishiga asos bo‘ladi.

### Adabiyotlar

1. Amir Temur. "Temur tuzuklari". — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — B. 120-135.
2. Navoiy, Alisher. "Mahbub ul-qulub". — T.: Yulduzcha, 1987. — B. 45-60.
3. Buxoriy Imom. "Al-jome‘ as-sahih". — T.: Movarounnahr, 1997. — 1-jild, B. 30-45.
4. Xayrullayev M. "O‘tmish mutafakkirlari ta’lim-tarbiya haqida" — Toshkent: O‘zPFITI, 2022. — B. 80-95.
5. Tuhliyev B. "Yusuf Xos Hojibning “Kutadg‘u bilig” asari" — T.: Fan, 2021. — B. 15-28
6. Mirziyoyev, Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". — T.: O‘zbekiston, 2017. — B. 180-192.
7. Inoyatova Z.X., Po‘latova G.N., & Khojimurodova D. (2022). Forming a scientific worldview in students during the educational process. *Science and Education*, 3(12), 795-800.
8. Inoyatova Z.X., Po‘latova G.N., & Xojimurodova D. (2022). Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish // *Science and Education*, 3(12), 795-800
9. Inoyatova Z., Karamatova D., Baltamuratova A., & Aralova D. (2022). Pedagogical conditions for the development of methodological training of future primary class teachers. *Ann. For. Res*, 65(1), 2291-2296.
10. Akhmedova M., Inoyatova Z., Ergasheva G., Aripova G., & Kayumova S. (2020). Primary classes based on media technologies represent an international rating system for teacher control. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3872-3885.
11. Inoyatova Z. (2024). The mechanism of improving the system of methodological preparation in teaching the subject of upbringing in future teachers of primary education // *Science and innovation*, 3(B11), 162-165.
12. Inoyatova Z. (2023). Technology for improving the methodological preparation of future primary class teachers for teaching sciences // *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(19), 75-77.
13. Иноятова З.Х. (2021). Интегрированный урок «воспитание» совместно с литературному чтению и изобразительному искусству в 3 классе. / *In Наука, Образование, Инновации: Актуальные Вопросы И Современные Аспекты* (pp. 232-236).

14. Inoyatova Z.X., & Mansurova M.J. (2025). Education of gifted students in primary grades—as a pedagogical problem // Scientific Approach To The Modern Education System, 3(33), 80-83.
15. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-педагогик асослари. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008. – 200 б.
16. Салаева М.С., Кислицина И.Л., Салаева М.С. Ноёб кўлёмалар коллекциялари. Монография. -Т.: Мумтоз нашриёти. 2019. - 112 б.
17. Салаева М.С ва муаллифлар жамоаси. Педагогика. Энциклопедия. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018. – 424 б.
18. Салаева М.С. Педагогика тарихини даврлаштириш замон талаби. // Халк таълими. – Тошкент, 2004. №2. – Б.17-19. (13.00.00).
19. Салаева М.С. Ўзбекистонда педагогика тарихини даврлаштириш муаммоси хусусида. // Ж. Педагогик таълим-Тошкент: 2007. № 5.-Б.5-8.
20. Салаева М.С. Периодизация истории узбекской педагогики как педагогическая исследовательская задача // Ж. Современные гуманитарные исследования. -Москва. 2009. № 6. - С.164-165.
21. Салаева М.С. Действующие теоретические и практические основы периодизации истории узбекской педагогики. // Педагогические науки. Москва, 2011. №5. – С. 12-13.